# FARG‘ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-may oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi.

2020-yil yanvar-may oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 498,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 45,2 mln. AQSh dollariga yoki 8,3 % ga kamaydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-may, mln. AQSh dollari)**




*Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko`rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o`rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o`rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o`z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo`yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o`rtasida o`tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSA da eksport hajmi 190,1 mln. AQSh dollariga (14,4 % ga kamaydi) va import hajmi 308,0 mln. AQSh dollariga (4,1 % ga

**FARG 'ONA VILOYATINING TASHQI AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO`LGAN DAVLATLAR (2020-yil yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 117,9 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

| Top-10 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 107,5 | 20,1 | 87,4 | 21,5 |
| Qozog`iston | 101,6 | 14,4 | 87,2 | 20,4 |
| Rossiya Federatsiyasi | 97,8 | 39,8 | 58,0 | 19,6 |
| Qirg'iz Respublikasi | 65,6 | 54,1 | 11,5 | 13,2 |
| Turkiya | 29,6 | 15,1 | 14,5 | 5,9 |
| Koreya Respublikasi | 10,9 | 2,8 | 8,1 | 2,2 |
| Turkmaniston | 8,2 | 0,2 | 8,1 | 1,6 |
| Tojikiston | 7,9 | 3,4 | 4,5 | 1,5 |
| Afg`oniston | 5,9 | 5,9 | - | 1,1 |

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Fargona viloyatning, jahonning 68 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (21,5 %), Qozog`istonda (20,4 %), Rossiya Federatsiyasida (19,6 %), Qirg`iz Respublikasida (13,2 %), Turkiyada (5,9 %), Koreya Respublikasida (2,2 %), va Turkmaniston (1,6 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat

hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Qozog`iston va Qirg`iz Respublikalari bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qirg`iziston Tojikiston va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, XXR (107,5 mln. AQSh dollari), Qozog`iston Respublikasi (101,6 mln. AQSh dollari), Rossiya Federatsiyasi (97,8 mln. AQSh dollari), Qirg`iziston (65,6 mln. AQSh dollari), Turkiya (29,6 mln. AQSh dollari) va Turkmaniston (8,2 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**FARG ‘ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **129,4** | **99,3** | **107,5** |
| Eksport | 44,4 | 5,0 | 20,1 |
| Import | 85,0 | 94,3 | 87,4 |
| Saldo | -41 | -89,3 | -67,3 |
| **Qozog`iston** | **91,4** | **68,1** | **101,6** |
| Eksport | 36,7 | 11,7 | 14,4 |
| Import | 54,7 | 56,4 | 87,2 |
| Saldo | -18,0 | -44,7 | -72,7 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **154,1** | **100,5** | **97,8** |
| Eksport | 40,5 | 42,1 | 39,8 |
| Import | 113,6 | 58,4 | 58,0 |
| Saldo | -73,1 | -16,3 | -18,2 |
| **Qirg‘iz Respublikasi** | **39,4** | **59,7** | **65,6** |
| Eksport | 22,5 | 44,6 | 54,1 |
| Import | 16,9 | 15,1 | 11,5 |
| Saldo | 5,6 | 29,5 | 42,6 |
| **Turkiya** | **26,1** | **46,8** | **29,5** |
| Eksport | 18,5 | 27,9 | 15,1 |
| Import | 7,6 | 18,9 | 14,4 |
| Saldo | 10,9 | 9,0 | 0,7 |
| **Koreya Respublikasi** | **11,2** | **12,9** | **11** |
| Eksport | 3,5 | 2,5 | 2,9 |
| Import | 7,7 | 10,4 | 8,1 |
| Saldo | -4,2 | -7,9 | -5,2 |
| **Turkmaniston** | **6,8** | **1,2** | **8,3** |
| Eksport | 0,1 | 0,2 | 0,2 |
| Import | 6,7 | 1,0 | 8,1 |
| Saldo | -6,6 | -0,8 | -7,9 |

**FARG ‘ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Tojikiston** | **4,9** | **15,2** | **7,9** |
| Eksport | 1,9 | 5,4 | 3,4 |
| Import | 3,0 | 9,8 | 4,5 |
| Saldo | -1,1 | -4,4 | -1,1 |
| **Polsha** | **9,8** | **10,9** | **8,7** |
| Eksport | 9,1 | 8,4 | 8,4 |
| Import | 0,7 | 2,5 | 0,3 |
| Saldo | 8,4 | 5,9 | 8,1 |
| **Afg‘oniston** | **2,8** | **2,4** | **5,9** |
| Eksport | 2,8 | 2,4 | 5,9 |
| Import | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Saldo | 2,8 | 2,4 | 5,9 |
| **Germaniya** | **12,1** | **11,2** | **5,1** |
| Eksport | 0,8 | 0,4 | 0,8 |
| Import | 11,3 | 10,8 | 4,3 |
| Saldo | -10,5 | -10,4 | -0,2 |
| **Yaponiya** | **0,29** | **6,6** | **4,4** |
| Eksport | 0,2 | 0,2 | 0,2 |
| Import | 0,09 | 6,4 | 4,2 |
| Saldo | 0,11 | -6,2 | -4,0 |
| **Misr** | **0,32** | **4,3** | **4,12** |
| Eksport | 0,3 | 4,1 | 4,1 |
| Import | 0,02 | 0,2 | 0,02 |
| Saldo | 0,28 | 3,9 | 4,08 |
| **Chexiya Respublikasi** | **4,4** | **4,0** | **3,2** |
| Eksport | 0,7 | 0,7 | 1,2 |
| Import | 3,7 | 3,3 | 0,2 |
| Saldo | -3,0 | -2,6 | 1,0 |

**FARG ‘ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Hindiston** | **7,2** | **1,7** | **3,1** |
| Eksport | 0,08 | 0,0 | 1,2 |
| Import | 7,1 | 1,7 | 1,9 |
| Saldo | -7,0 | -1,7 | -0,7 |
| **Italiya** | **3,2** | **1,8** | **2,84** |
| Eksport | 0,3 | 0,3 | 0,04 |
| Import | 2,9 | 1,5 | 2,8 |
| Saldo | -2,6 | -1,2 | -2,76 |
| **Belarus Respublikasi** | **1,6** | **1,8** | **2,0** |
| Eksport | 1,1 | 0,5 | 1,0 |
| Import | 0,5 | 1,3 | 1,0 |
| Saldo | 0,6 | -0,8 | 0 |
| **Eron** | **2,0** | **2,3** | **0,8** |
| Eksport | 1,6 | 0,5 | 0,1 |
| Import | 0,4 | 1,8 | 0,7 |
| Saldo | 1,2 | -1,3 | -0,6 |
| **Latviya** | **3,9** | **12,0** | **0,7** |
| Eksport | 0,5 | 0,5 | 0,3 |
| Import | 3,4 | 11,5 | 0,4 |
| Saldo | -3,4 | -10,0 | -0,1 |
| **AQSH** | **0,04** | **0,1** | **0,35** |
| Eksport | 0,03 | 0,03 | 0,05 |
| Import | 0,01 | 0,07 | 0,3 |
| Saldo | 0,02 | -0,04 | -0,25 |
| **Vetnam** | **1,8** | **3,4** | **1,4** |
| Eksport | 1,7 | 3,4 | 1,3 |
| Import | 0,1 | 0.002 | 0,1 |
| Saldo | 1,6 | 3,3 | 1,2 |

Viloyatimizda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash

**FARG'ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLAN-MASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAV-LATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-may oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 57,8 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2019-yilga nisbatan ulushi 2,6 % ga oshgan.







Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020-yil yanvar-may oylarida 2019-yilning mos davriga nisbatan kamaydi (6,9 % ga) va jami TSA dagi ulushi 42,2 % ni tashkil etdi.

## FARG'ONA VILOYATNING EKSPORTI (2020-yil yanvar-may)

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatning eksportyorlar soni 444 tani tashkil etib, ular tomonidan 190,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2019-yilning mos davriga nisbatan 14,4 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi.

**EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-may, ulushi, % da)**

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,8 % ni tashkil etib, ular asosan oziq-ovqat mahsulotlari ( 34,9 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar ( 2,2 %), energiya manbalari va neft mahsulotlari ( 1,0 %), pahta tolasi ( 0,5 %), qora va rangli metallar ( 0,1 %), masnina va uskunalar ( 0,2 %), shuningdek hizmatlar eksporti ( 1,7 %) va boshqalar ( 59,4 %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-may, ulushi, % da)**




**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-may)**

| XSST tarkibi | Mln. AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar |
| **Jami eksport** | 190,1 | 116,0 | 74,1 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| **Paxta tolasi** | 1,0 | - | 1,0 | 0,5 | - | 1,4 |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 66,3 | 60,5 | 5,8 | 34,9 | 52,1 | 8,0 |

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O`SISH SUR`ATLARI (2020-yil yanvar-may)**

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 4,1 | 3,5 | 0,6 | 2,2 | 3,1 | 0,8 |
| **Energiya manbaalari va neft mahsulotlari** | 1,9 | 1,0 | 0,9 | 1,0 | 0,9 | 1,3 |
| **Qora va rangli metallar** | 0,2 | 0,2 | 0,03 | 0,1 | 0,1 | 0,0 |
| **Mashina va asbob -uskunalar** | 0,3 | 0,3 | 0,04 | 0,2 | 0,3 | 0,1 |
| **Xizmatlar** | 3,3 | 1,5 | 1,8 | 1,7 | 1,3 | 2,5 |
| **Boshqalar** | 112,9 | 49,0 | 63,9 | 59,4 | 42,2 | 85,9 |

Boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, turli xil tayyor buyumlar hamda mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallarga to`g`ri kelmoqda.

| XSST tarkibi | 2019- yilning yanvar-mayga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **85,6** | **105,6** | **66,0** |
| shu jumladan: | | | |
| **Paxta tolasi** | 100,0 | - | 100,0 |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 82,0 | 93,3 | 36,2 |
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 388,7 | 343,3 | 17,1 m |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Energiya manbaalari va neft mahsulotlari** | 23,6 | 23,6 | 23,6 |
| **Qora va rangli metallar** | 19,0 m. | 19,0 m. | 12,0 m. |
| **Mashina va asbob -uskunalar** | 138,1 | 144,5 | 101,7 |
| **Xizmatlar** | 89,5 | 55,7 | 178,2 |
| **Boshqalar** | 88,2 | 133,0 | 70,0 |

2020-yil yanvar-may oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-mayiga nisbatan, mashina va asbob-uskunalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlaridan tashqari barcha tovar guruhlarida pasayish kuzatildi.

**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI (yanvar-may, % da)**

| XSST tarkibi | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| **Paxta tolasi** | 5,0 | 7,3 | 6,2 |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 0,1 | 0,1 | 0,2 |
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 4,0 | 5,5 | 4,3 |
| **Energiya manbaalari va neft mahsulotlari** | 13,6 | 13,3 | 8,0 |
| **Qora va rangli metallar** | 0,0 | 0,1 | 0,1 |
| **Mashina va asbob -uskunalar** | 6,7 | 5,6 | 5,7 |

| XSST tarkibi | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Xizmatlar** | 13,7 | 18,2 | 17,1 |
| **Boshqalar** | 1,7 | 2,1 | 2,4 |

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

So`nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018-yil yanvar-mayidagi 49,1 % dan 2020-yil yanvar-mayida 61,0 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 39,0 % ni tashkil etdi.







2020-yilning yanvar-may oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qirg`iz Respublikasi (28,5 %), Rossiya Federatsiyasi (21,0 %), Xitoy Xalq Respublikasi (10,6 %), Turkiya (8,0 %), Qozog`iston (7,6 %), Polsha (4,4 %) va Tojikiston (1,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 81,9 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasining ikki pog`onaga tushishi hisobiga, Qirg`iz Respublikasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha geografiyasi 2019-yining mos davriga nisbatan 47 davlatdan 49 davlatga ko'paydi.

**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020-yil yanvar-may, % da)**




**FARG 'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O`SISH SUR`ATLARI (yanvar-may)**

| Davlatlar | Mln.AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | O'rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| Qirg`iz Respublikasi | 44,6 | 54,1 | 198,2 | 121,3 | 2 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 42,1 | 39,8 | 104,0 | 94,5 | 3 | 2 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 50,2 | 20,0 | 113,1 | 39,8 | 1 | 3 |
| Turkiya | 27,9 | 15,1 | 150,8 | 54,1 | 4 | 4 |
| Qozog`iston | 11,7 | 14,4 | 31,9 | 123,1 | 5 | 5 |
| Polsha | 8,5 | 8,4 | 92,4 | 98,8 | 6 | 6 |
| Afg`oniston | 2,4 | 5,9 | 85,7 | 245,8 | 11 | 7 |
| Singapur | 0,0 | 5,2 | 100 | 100,0 | 20 | 8 |
| Misr | 4,1 | 4,1 | 13 m | 100,0 | 8 | 9 |
| Tojikiston | 5,4 | 3,4 | 284,2 | 62,9 | 7 | 10 |
| Vyetnam | 3,4 | 1,3 | 195,6 | 39,3 | 10 | 11 |
| Koreya Respublikasi | 2,5 | 2,9 | 73,5 | 116 | 9 | 12 |
| Hindiston | 0,005 | 1,2 | 7,1 | 24 m | 19 | 13 |
| Chehiya | 0,6 | 1,1 | 85,7 | 183,3 | 12 | 14 |
| Belarus Respublikasi | 0,5 | 1,0 | 45,5 | 200 | 13 | 15 |
| Germaniya | 0,4 | 0,8 | 57,1 | 200 | 15 | 16 |

| Davlatlar | Mln.AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | O'rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| Latviya | 0,5 | 0,3 | 100 | 60,0 | 14 | 17 |
| Turkmaniston | 0,2 | 0,2 | 200 | 100 | 18 | 18 |
| Bolgariya | 0,2 | 0,5 | 80 | 2 m | 17 | 19 |
| Eron | 0,5 | 0,1 | 31,2 | 20,0 | 16 | 20 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari, yengil sanoat va shunga o`xshash materiallar, material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

## FARG 'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O`SISH SUR`ATLARI (yanvar-may)

| XSST tarkibi | Qirg`iz Respublikasi | | Rossiya Federatsiyasi | | XXR | | Turkiya | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| **Jami eksport** | **44,6** | **54,1** | **42,1** | **39,8** | **50,3** | **20,2** | **18,9** | **15,1** |
| shu jumladan: | | | | | | | | |
| **Paxta tolasi** | | | | | | | | |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 39,6 | 31,3 | 10,2 | 15,8 | 0,4 | 0,2 | 0,5 | 0,04 |
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 0,6 | 2,2 | 0,02 | 0,02 | - | - | 2,9 | 1,0 |
| **Energiya manbaalari va neft mahsulotlari** | | 0,3 | | - | | - | | |
| **Qora va rangli metallar** | 0,009 | 0,1 | 0,02 | 0,001 | - | - | 0,4 | |
| **Mashina va asbob -uskunalar** | | - | | 0,2 | | | 11,6 | |
| **Xizmatlar** | 0,03 | 0,07 | 2,6 | 1,3 | - | | | |
| **Boshqalar** | 3,3 | 20,2 | 27,9 | 22,5 | 49,8 | 19,8 | 3,4 | 14,1 |

**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (yanvar-may, ulushi, % da)**




Xizmatlar eksporti hajmi 3,3 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,7 % ini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 10,5 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (83,4 %) va moliyaviy (10,3 %) xizmatlari hissasiga to`g`ri kelgan. Shu bilan birga telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (2,0 %), boshqa tadbirkorlik bilan bog`liq xizmatlar (4,3 %) ni tashkil etgan.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan 60,5 mln. dollar qiymatli 65,0 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019-yilning mos davriga nisbatan 4,7 mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 7,3 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 18,1 mln. AQSh dollariga teng 40,1 ming tonna sabzavot, shuningdek, 39,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi 21,6 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOT-LARI EKSPORTI**

Hukumat tomonidan qishloq xo`jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 31,8 % ni tashkil etdi.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOT-LARI EKSPORTI (2020 yil yanvar-may, mln. AQSh dollari)**




Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg`iz Respublikasi (50,7 %), Rossiya Federatsiyasi (25,4 %) va Qozog`iston (20,6 %) davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

## MEVA - SABZAVOT MAHSULOT-LARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (yanvar-may)

| Davlatlar | 2019-yil | | | 2020-yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da |
| Qozog‘iston | 14,1 | 9,4 | 14,3 | 17,9 | 12,5 | 20,7 |
| Rossiya Federatsiyasi | 17,3 | 9,7 | 14,9 | 20,0 | 15,4 | 25,5 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 15,1 | 38,9 | 59,6 | 24,5 | 30,8 | 50,9 |
| Afg‘oniston | 0,7 | 0,5 | 0,8 | 0,6 | 0,2 | 0,3 |
| Pokiston | 0,2 | 0,1 | 0,2 | 0,07 | 0,05 | 0,1 |
| XXR | 0,1 | 0,4 | 06 | 0,06 | 0,2 | 0,3 |
| Iroq | 0,02 | 0,05 | 0,1 | 0,02 | 0,03 | 0,0 |
| Tojikiston | 1,3 | 1,5 | 2,3 | 0,05 | 0,05 | 0,1 |
| Ukraina | 7,5 | 2,9 | 4,4 | 1,2 | 0,6 | 1,0 |
| Turkiya | 1,0 | 0,8 | 1,2 | - | - | - |
| Belarus Respublikasi | 0,2 | 0,06 | 0,1 | 0,1 | 0,05 | 0,1 |
| Turkmaniston | 0,3 | 0,03 | 0,0 | - | - | - |
| Koreya Respublikasi | 0,06 | 0,04 | 0,1 | 0,1 | 0,2 | 0,3 |
| Gruziya | 0,08 | 0,02 | 0,0 | - | - | - |
| Germaniya | 0,02 | 0,01 | 0,0 | | | |
| BAA | 0,03 | 0,06 | 0,1 | 0,04 | 0,09 | 0,1 |
| Boshqa davlatlar | 1,09 | 0,83 | 1,3 | 0,36 | 0,33 | 0,5 |

*-*qiymat ifodasidan*

**TO`QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI**

Eksport qilingan to`qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (40,9 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (2,7 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 15 turdagi to`qimachilik mahsulotlari dunyoning 35 ta davlatiga eksport qilindi.

To`qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining kamayishi bevosita paxta xomashyosi o`rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo`shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko`rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 87,5. mln. AQSh dollarlik to`qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 46,0 % ini tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan 25,8 % ga kamaydi.

**TO`QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari)**

| Tovar nomi | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| Paxtadan yigirilgan ip | 118,6 | 101,5 | 65,3 |
| Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari | 1,3 | 2,9 | 5,3 |
| Gilamlar | 0,04 | 0,03 | 0,006 |
| Naqshli mato | 1,1 | 1,1 | 2,1 |
| Boshqa to`qimachilik mahsulotlari | 2,4 | 0,6 | 1,8 |
| Paxtadan gazlamalar | 0,6 | 7,9 | 10,1 |
| Ipak va ipak mahsulotlari | 1,5 | 1,4 | 1,6 |
| Paxta mahsulotlari | 1,0 | 1,1 | 1,2 |

**DAVLATLAR KESIMIDA TO`QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari)**

Viloyatning to`qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag`batlantirish borasidagi amaliy ishlari naijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To`qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (18,4 mln. AQSh dollari ), Rossiya Federatsiyasi (11,7 mln. AQSh dollari ), va Turkiya (15,5 mln.) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

| Davlatlar | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 25,4 | 18,6 | 11,7 |
| XXR | 41,8 | 49,2 | 18,4 |
| Turkiya | 17,9 | 13,6 | 15,1 |
| Qirg`iz Respublikasi | 0,09 | 0,5 | 0,1 |
| Qozog'iston | 0,4 | 0,3 | 0,2 |
| Polsha | 7,4 | 6,2 | 8,3 |
| Ukraina | 1,5 | 1,8 | 1,5 |
| Eron | 1,5 | 0,3 | - |
| Tojikiston | - | 0,09 | 0,05 |
| Misr | 0,3 | 4,1 | 4,1 |
| Belarus Respublikasi | 1,1 | 0,4 | 0,7 |
| Ozarbayjon | 0,09 | 0,2 | 0,2 |
| Vyetnam | 1,5 | 3,3 | 1,3 |
| Italiya | 0,3 | 0,3 | 0,04 |
| Korea Respublikasi | 3,5 | 2,3 | 2,2 |
| Belgiya | | - | 0,5 |
| Germaniya | 0,7 | 0,4 | 0,8 |
| Marokesh | 0,3 | 1,2 | 1,0 |
| Bangladesh | 10,5 | 5,2 | 1,3 |

# FARG‘ONA VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-may)

**IMPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-may, ulushi, % da)**

2020-yil yanvar-may oylarida import hajmi 308,0 mln. AQSh dollarini va 2019-yilning mos davriga nisbatan 95,9 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (28,0 %), mashina va asbob uskunalar (25,9 %), oziq-ovqat mahsulari (14,7 %) hamda kimyoviy vositalar (10,2 %) hisobiga to`g`ri keldi.




Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko’ra, 2020-yilning yanvar-mayiga import qilingan tovarlar hajmi, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 16,3 mln. AQSh dollariga kamaydi va 302,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 5,6 mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLAT-LARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulush % da)**

| XSST tarkibi | Mln. AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami import** | **308,0** | **171,5** | **136,5** | **100** | **100** | **100** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 45,2 | 39,9 | 5,3 | 14,7 | 23,3 | 3,9 |
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 31,4 | 7,3 | 24,1 | 10,2 | 4,3 | 17,7 |
| **Energiya manbaalari va neft mahsulotlari** | 86,2 | 86,0 | 0,2 | 28,0 | 50,1 | 0,2 |
| **Qora va rangli metallar** | 22,1 | 13,5 | 8,6 | 7,1 | 7,9 | 6,0 |
| **Mashina va asbob - uskunalar** | 79,6 | 2,3 | 77,3 | 25,9 | 1,3 | 56,7 |
| **Xizmatlar** | 5,6 | 0,0 | 5,6 | 1,8 | 0,0 | 4,1 |
| **Boshqalar** | 37,9 | 22,5 | 15,4 | 12,3 | 13,1 | 11,4 |

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTNING O`SISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-may)**

Importning eng katta ulushi, jumladan, Energiya manbalari va neft mahsulotlari ( 50,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari (95,8 %) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (56,7 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (17,7 %), hissasiga to`g`ri keladi.

**FARG ‘ONA VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020-yil yanvar-may, % da)**

| XSST tarkibi | 2019-yil yanvar-mayiga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **95,9** | **119,0** | **77,0** |
| shu jumladan: | | | |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 130,0 | 145,7 | 71,6 |
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 87,1 | 85,6 | 87,6 |
| **Energiya manbaalari va neft mahsulotlari** | 237,2 | 237,6 | 161,1 |
| **Qora va rangli metallar** | 53,2 | 64,6 | 41,2 |
| **Mashina va asbob -uskunalar** | 74,3 | 51,3 | 75,3 |
| **Xizmatlar** | 215,7 | 7,3 | 223,9 |
| **Boshqalar** | 60,1 | 48,3 | 92,5 |

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2018-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 4,7 % dan 14,7 % ga o’sdi, energiya manbalari va neft mahsulotlari esa 39,9 % dan 28,0 % ga kamaydi.

| XSST tarkibi | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 4,6 | 10,8 | 14,7 |
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 7,4 | 11,2 | 10,2 |
| **Energiya manbaalari va neft mahsulotlari** | 39,9 | 11,3 | 28,0 |

| XSST tarkibi | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| Qora va rangli metallar | 9,1 | 12,7 | 7,1 |
| Mashina va asbob -uskunalar | 24,0 | 33,4 | 25,9 |
| Xizmatlar | 0,6 | 0,8 | 1,8 |
| Boshqalar | 14,4 | 12,4 | 12,3 |

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-may)**







**VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR (yanvar-may)**

Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 20,1 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (19,9 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.

| Davlatlar | Mln. AQSH dollari | | O`sish sur`ati, % da | | O`rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 94,3 | 87,4 | 110,9 | 92,7 | 1 | 1 |
| Qozog`iston | 56,3 | 87,2 | 103,1 | 154,9 | 3 | 2 |

**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR (yanvar-may)**

| Davlatlar | Mln. AQSH dollari | | O`sish sur`ati, % da | | O`rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| Rossiya Federatsiyasi | 58,4 | 58,0 | 51,5 | 99,3 | 2 | 3 |
| Turkiya | 18,9 | 14,4 | 248,7 | 76,2 | 4 | 4 |
| Qirg'iz Respublikasi | 15,1 | 11,5 | 89,3 | 76,2 | 5 | 5 |
| Koreya Respublikasi | 10,4 | 8,1 | 135,1 | 77,9 | 8 | 6 |
| Turkmaniston | **1,0** | 8,1 | 14,9 | 8,1 m | 17 | 7 |
| Tojikiston | **9,8** | 4,5 | 326,7 | 45,9 | 9 | 8 |
| Germaniya | **10,8** | 4,4 | 95,9 | 40,7 | 7 | 9 |
| Yaponiya | **6,4** | 4,2 | 71,1 m | 65,6 | 10 | 10 |
| Italiya | **1,5** | 2,8 | 51,7 | 186,7 | 13 | 11 |
| Hindiston | **1,7** | 1,9 | 23,9 | 111,8 | 14 | 12 |
| Litva | **3,9** | 1,4 | 118,2 | 35,9 | 11 | 13 |
| Ukraina | **2,5** | - | 12,0 m | - | 12 | 14 |
| Belarus | **1,3** | 1,0 | - | 76,9 | 16 | 15 |
| Latviya | **11,5** | 0,4 | 3,3 m | 3,5 | 6 | 16 |
| AQSH | **0,07** | 0,3 | 7,0 m | 4,0 m | 20 | 17 |
| Niderlandiya | **1,4** | 0,3 | 93,3 | 21,4 | 15 | 18 |
| Chehiya | **0,3** | 0,2 | 8,1 | 66,7 | 19 | 19 |
| Fransiya | **0,5** | 0,1 | 5,5 m | 20,0 | 18 | 20 |

**FARG'ONA VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020-yil yanvar-may, % da)**

2019-yil bilan taqqoslaganda import bo`yicha eng yuqori oltilikda o`zgarish kuzatilmadi.

2020-yil yanvar-may oylari yakuni bo'yicha Fargona viloyati tomonidan 53 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

**FARG‘ONA VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020-yil yanvar-may, % da)**




Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy, Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qirg‘iziston, Koreya Respublikasi va Tukmaniston) jami importning 86,6 % ini tashkil qiladi, bu 266,6 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Qozog‘iston, Koreya, Rossiya, tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (yanvar-may, ulushi, % da)**

2020-yil yanvar-may oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 5,6 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 1,8 % ini tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan 15,7 % ga o’sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi savdo va tehnik muhandislik xizmati va boshqa xizmatlaridan iborat bo`ldi.

**XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (yanvar-may, ulushi, % da)**




**QURILISH MATERIALLARI IMPORTI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari)**

2020-yil yanvar-may oylari yakuni bilan 11,5 mln. AQSh dollari miqdorida qurilish materiallari importi amalga oshirilgan bo`lib, umumiy import hajmining 3,7 % ini tashkil qildi.

Import qilingan qurilish materiallari tarkibida yog`och va yog`och mahsulotlari (0,7 %), shisha va shisha buyumlar (0,9 %), sement (1,9 %), hamda asbest (0,1 %) asosiy ulushni egallagan.

2020-yil yanvar-may yakunlariga ko`ra, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan pasayish (20,1 %) qayd etildi.



**QURILISH MATERIALLARI IMPORTI (2020-yil yanvar-may)**

Qurilish materiallari importi, asosan yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, keng ko`lamdagi qurilish-rekonstruksiya ishlarini amalga oshirilishiga qaratilmoqda.

| Qurilish materiallari | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Yog`och va yog`och mahsulotlari** | 7,7 | 5,7 | 2,4 |
| **Shisha va shisha buyumlar** | 0,009 | 0,02 | 2,8 |
| **Sement** | 35,2 | 18,2 | 5,9 |
| **Asbest** | 11,2 | 2,9 | 0,4 |

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta`minlash bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat**
**va savdo statistikasi bo ‘limi.**
**Tel.:(73)-249-87-18**